

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA
SAN‘ATI INSTITUTI**

**“Tasdiqlayman”
O‘zMMMSI rektori**



**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi**



**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

“AN‘ANAVIY YAKKA XONANDALIK” FANI

**5150602 – Vokal san‘ati: an‘anaviy xonandalik
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

Toshkent – 2021 yil

Dastur Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.
2021 yil 31 maydagi 10-sonli Ilmiy Kengash bayoni.

Tuzuvchilar:

O‘zMMSI “Maqom xonandaligi”
kafedrası mudiri, dotsent,
Sh.Matyoqubov

O‘zMMSI “Maqom xonandaligi”
kafedrası professori, “O‘zbekiston xalq
artisti M.Yo‘lchiyeva

Taqrizchilar:

O‘zMMSI “Maqom cholg‘u
ijrochiligi” kafedrası professori
R.Qosimov

O‘zMMSI “Maqom cholg‘u
ijrochiligi” kafedrası professori
S.Azizboev

Kirish

“5150602 – Vokal san’ati: an’anaviy xonandalik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asar kuylash borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsad va vazifalari

“5150602 – Vokal san’ati: an’anaviy xonandalik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan holda me‘yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“An’anaviy yakka xonandalik” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega ekanliklari va o‘zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iborat. Alohida e‘tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko‘rsatib berishga qaratilishi kerak. “An’anaviy yakka xonandalik” fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya’ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san’at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

“5150602 – Vokal san’ati: an’anaviy xonandalik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko‘zda tutilgan.

O‘qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo‘lgan vaqt mobaynida ijro dasturi (yirik shakl, o‘zbek xalq musiqasidan namuna, mahoratli asar)ni ijro etib berishi, 15 daqiqagacha vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

Kiruvchi abituriyent komissiyaga quyidagi asarlarni taqdim qilishi kerak:

- Ijro dasturi
- Kollokvium

Ijro dasturi

“5150602 – Vokal san’ati: an’anaviy xonandalik” ta’lim yo‘nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro‘yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni ansambl jo‘rligida yoddan kuylashadi.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur‘atini ko‘rsatilgan tezlikda, kuy shtrixlarini to‘g‘ri qo‘llagan holda, intonnatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to‘liq ochib bergan holatda kuylab berishi zarur. Asarda

musiqiy ifoda vositalarining qo‘llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

Taxminiy ijro dasturi ro‘yxati

1. O‘zbek xalq ashulalari yoki bastakorlar ijodiga mansub asarlardan biri. Masalan: “Naylayin”, “Munojot”, “Tanovar”, “Yor istab”, “Mustaxzod”, “Topmadim”, “Koshki”, “Ko‘rsatmagay”, “Otmagay tong”, “Aylagach”, “Ey sabo” va boshqalar.

2. Vohalarga mansub ashulalardan biri. Masalan: “Ko‘cha bog‘i I-II”, “Girya I-II”, Fig‘on I-II”, “Adoiy va Asiriy”, “Miskin”, “Suvora”, “Savti suvora” va boshqalar.

3. Shashmaqom yoki Farg‘ona - Toshkent yoki Xorazm maqom ashulalaridan biri. Masalan: Saraxbor yoki Talqin yoki Nasr, Savt yoki Mug‘ulcha, Dugoh Xusaynilar, Bayotlar, Chorgohlardan biri va h.k.

Kollokvium

Kollokvium savol-javoblari:

a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo‘nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari va h.k.);

b) o‘rta maxsus ta‘limning umumiy kursi darajasida elementar musiqa nazariyasi, cholg‘ushunoslik, musiqa adabiyotidan bilimlarni;

v) shakl va garmoniya nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va boshqa asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o‘z ichiga oladi;

g) notadan o‘qish ko‘nikmasi.

Shuningdek, kollokviumda abituriyentning musiqa san‘ati va boshqa san‘at turlaridan, o‘zbek va chet el musiqasida ma‘lum va mashhur asarlar, zamonaviy an‘analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

I.Ijro dasturi

| <u>№</u> | Ijro talablari | To‘liq javob uchun ball |
|----------|--|--------------------------------|
| 1. | Asar nota matnining to‘g‘riligi | 8.0 |
| 2. | Tovush sifati va uni boshqarish | 8.0 |
| 3. | Cholg‘u chalib ijro etish | 8.0 |
| 4. | Sahna madaniyati | 8.0 |
| 5. | Artikulyatsiya talablarining bajarilishi | 8.0 |
| 6. | Musiqiy ifoda vositalarining to‘g‘ri qo‘llanishi | 8.0 |
| 7. | Nafasning tog‘ri olinishi va ishlatilishi | 8.0 |
| 8. | Intonnatsiya sofligi | 8.0 |
| 9. | Asar xususiyatini ochib berilishi | 8.0 |
| 10 | Sur‘atning to‘g‘ri tanlanishi | 8.0 |

Ijro dasturi bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **80.0 ball**

II.Kollokvium

| № | Savollar mazmuni | To'liq javob uchun ball |
|----|---|-------------------------|
| 1. | Maqomlarga oid savollar | 4.0 |
| 2. | Asarga oid savollar | 4.0 |
| 3. | Shaxsiy ijro uslubiga ega bo'lgan ijrochilar haqida | 4.0 |
| 4. | Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili | 4.0 |
| 5. | Bastakorlik ijodiyotiga oid savollar | 4.0 |

Kollokvium bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **20.0 ball**

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

ijro dasturi – **80.0 ball**,

kollokvium – **20.0 ball**.

Mazkur ta'lim yo'nalishida "An'anaviy yakka xonandalik" uchun qo'yiladigan maksimal ball – **100.0 ball**.

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

"5150602 – Vokal san'ati: an'anaviy xonandalik" ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda va tartibda 1 akademik soat vaqt davomida "An'anaviy yakka xonandalik" fanidan ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi, bo'yicha imtihonni qabul qilib oladi, kollokvium o'tkazadi.

Ixtisoslik fanidan ijodiy imtihonlarda qatnashmagan abituriyentlar keyingi sinovlarga kiritilmaydi.

Solfedjio fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG'ZAKI:

1. Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash
2. Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.

OG'ZAKI SAVOL-JAVOB BO'YICHA BALLARNI TAQSIMLANISHI:

| № | Savollar mazmuni | To'liq javob uchun ball |
|----|---|-------------------------|
| 1. | Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash: | |
| a) | Tonallikni to'g'ri aniqlash | 6 ballgacha; |
| b) | Sof kuylash | 6 ballgacha; |
| c) | Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish | 6 ballgacha. |

| | | |
|-------------|--|--------------|
| 2. | Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash. | 8 ballgacha. |
| Jami | | 26,0 |

Mazkur ta'lim yo'nalishida solfedjio fanidan jami qo'yiladigan maksimal ball - **26,0 ball**.

1. Notanish bir ovozli misollarni kuylash (tavsiya etilgan to'plamlar: Н. Ладухин “Одноголосное сольфеджио”).

- Tonallikni to'g'ri aniqlash – 4 ball;
 - Sof kuylash – 6 ball;
 - Dirijyorlik harakati – 4 ball;
 - Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish – 4 ball.
2. Eshitib aniqlash:
- Intervallar – 2 ball
 - Ladlar – 2 ball
 - Uchtovushliklar aylanmalari bilan - 2 ball
 - Septakkordlar aylanmalari va ularning yechilishi – 2 ball

Og'zaki vazifalarni bajarishda yo'l qo'yilgan xatoliliklarni baholash mezonlari.

Jarima ballari:

1. Tonallikni noto'g'ri aniqlanishi – 2 ball;
2. Har bir motivni sof kuylanmaganligi uchun – 1,5 ball;
3. Dirijyorlikdagi noaniqlik – 2 ball;
4. Har bir motivdagi ritmik ketma-ketlikka rioya qilmaslik – 0,5 ball.
5. Intervallar – 1 ball
6. Ladlar – 1 ball
7. Uchtovushliklar aylanmalari bilan - 2 ball
8. Septakkordlar aylanmalari va ularning yechilishi – 2 ball

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 126.0 ball

Solfedjio fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

Vokal san'ati: an'anaviy xonandalik, Professional ta'lim: vokal san'ati turlari bo'yicha ta'lim yo'nalishlariga xujjat topshirgan abituriyent jadval asosida

belgilangan kunlarda solfedjio fanidan og‘zaki tartibda. Berilgan vazifalarni topshirish ushun 10-20 daqiqa ajratiladi.

Har bir fan bo‘yicha sinov o‘tkazuvchi komissiya a‘zolari ikki-uchtani tashkil etadi va ular “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtixonlar maxsus qurollar, xususan fortepiano bilan jihozlangan xonalarda o‘tkaziladi.

Solfedjio fanidagi vazifalar Davlat standartiga rioya qilgan holda bajariladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay‘atiga natijalar e‘lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin.

Murojaat mazmuni faqat o‘zining ballari yuzasidan bo‘lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.